

tadqiqotlari industriyasining o'sishi, korxonalarining ma'lumotga asoslangan qarorlar qabul qilishga bo'lgan ehtiyojini ko'rsatadi. Sotish tizimida marketing tadqiqotlari usullari korxonalariga bozor sharoitlarini chuqur o'rganish, iste'molchi ehtiyojlarini aniqlash va sotish kanallarining samaradorligini oshirish imkonini beradi. Tadqiqotlar natijalari asosida qaror qabul qilish ilmiy asosga ega bo'lib, xarid jarayonidagi risklarni kamaytiradi va raqobatbardoshlikni mustahkamlaydi.

An'anaviy usullar so'rovnoma, intervyu, kuzatuv va fokus-guruhlar iste'molchi xatti-harakati va bozor talabini aniqlashda samarali bo'lsa, zamonaviy usullar neyromarketing tadqiqotlari, A/B testlar, panel tadqiqotlari va Big Data tahlili sotish tizimining murakkab jarayonlarini real vaqtda va chuqur o'rganish imkonini beradi. Neyromarketing tadqiqotlari esa iste'molchilarning ong osti qarorlarini aniqlash orqali mahsulot dizayni, reklama kontenti va sotish nuqtalari joylashuvini optimallashtirishga yordam beradi. Bu esa sotish kanallari samaradorligini oshirish, xarid konversiyasini kuchaytirish va individual yondashuv asosida marketing strategiyalarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, sotish tizimlarida marketing tadqiqotlari korxonalarining raqobatbardoshligi va rivojlanishining asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. Texnologiyaning tez rivojlanishi va mijdozlar talablarining o'zgarishi sharoitida tizimli va ilmiy asoslangan tadqiqotlar olib borish muvaffaqiyatning kaliti hisoblanadi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

*Brandwatch. (2025). 10 essential methods for effective consumer and market research. Retrieved from <https://www.brandwatch.com/blog/market-research-methods/>*

*ESOMAR. (2024). Global market research industry revenue report. Amsterdam: ESOMAR.*

*Forrester Research. (2024). Q2 AI pulse survey 2024. Cambridge, MA: Forrester Research, Inc.*

*HubSpot. (2024). Marketing strategy report 2024. Boston, MA: HubSpot, Inc.*

*Kotler, P., & Keller, K. L. (2016). Marketing management (15th ed.). Pearson Education.*

*Outreach. (2024). Sales 2024: A revenue data analysis. Seattle, WA: Outreach Corporation.*

## **ISLOM QIMMATLI QOG'OZLARINING STATISTIK TAHLILI**

### ***Norboyeva Maftuna Shavkat qizi***


*TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi stajyor-tadqiqotchisi*

Islom moliyasi bugungi kunga kelib, butun dunyoda sezilarli tarzda o'sib kelayotgan an'anaviy moliyaga muqobil tizim sifatida rivojlanib kelmoqda. Ushbu

tizimning instrumentlaridan biri hisoblanadigan sukuk – islom qimmatli qog‘ozlari riskni diversifikatsiyalovchi, yashirin iqtisodiyotning oldini oluvchi hamda iqtisodiyotda qo‘shimcha qiymat yaratishga qaratilgan bir necha xususiyatlari bilan tanildi.

Yuqori sur‘atlarda o‘sib borayotgan sukuk orqali o‘tgan yillar davomida jahon iqtisodiyotiga 2024-yilga qadar 2,2 trln AQSH dollar investitsiya jalb qilingan. Sukuk emissiyasida Indoneziya, Malayziya, Pokiston kabi davlatlar yetakchilik qilib turgan paytda aholisi musulmon bo‘lmagan Germaniya, Yaponiya, Fransiya kabi iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda ham sukuk emissiya qilinyotganligi ushbu qimmatli qog‘ozlarning salmog‘i qay darajada oshib boryotganligini ko‘rsatadi<sup>232</sup>.

Islom moliya tizimida uning ajralmas bir qismi bo‘lmish sukuk moliyalashtirish manbai aktivlarga asoslanganligi sababli an‘anaviy qimmatli qog‘ozlar bozori qatorida o‘zining raqobatbardoshligini ko‘rsatib kelmoqda<sup>233</sup>. Quyida islom qimmatli qog‘ozlarining, rivojlanish tendensiyalari, davlatlar miqyosida uni chiqarish bo‘yicha statistik tahlil amalga oshirilgan.



### Global sukuk emissiyasi yillar kesimida (million AQSH dollarida )<sup>234</sup>

Dastlabki sukuk emissiyasiga urinishlar Iordaniya va Pokiston tomonidan 1980 – yillarda boshlangan. Lekin shaffoflikning yetarli darajada emasligi hamda infratuzilma bilan bog‘liq muommolar sababli muvaffaqiyatli tugamagan. Bundan qariyb 10 yillar o‘tib ya‘ni 1980 – yilda qiymati 32.9 mln. AQSH dollari bo‘lgan ilk muvaffaqiyatli sukuk Malayziyada emissiya qilingan. Shundan keyin to 2001 –

<sup>232</sup> Islom moliya xizmatlari sanoati barqarorligi haqida hisoboti(2020)

<sup>233</sup> Abrorov S., Imamnazarov J. (2021) Islom moliyasi: O‘zbekiston uchun yangi imkoniyatlar. Iqtisodiyot va ta‘lim, 4-son, 146-158 bet

<sup>234</sup> Sukuk report: A comprehensive study of the global sukuk market. International Islamic Financial Market, November 2025, 14th edition. P-12

yilgacha deyarli sukuk emissiya qilinmagan. 2001– yilda sukuk bozori Bahrayn markaziy banki tomonidan 100 million AQSh dollari (5 yillik muddat) va bir qator ichki suveren qisqa muddatli salam sukuki chiqarilishi bilan xalqaro miqyosga chiqdi. Xuddi shu yili Malayziya tomonidan birinchi 5 yillik xalqaro korporativ ijara sukuki 150 million AQSh dollari miqdorida chiqarilgan. Shu tarzda 2008-yil Jahon moliyaviy inqirozigacha sukuk emissiyasida o‘shish kuzatilgan. Ushbu yili qariyb 2,5 baravar (48,8 mlrddan 18,5 mlrdga) kamayish kuzatilgan.

Yuqoridagi gistogrammaga e‘tibor beradigan bo‘lsak, ma‘lumotlar 2010-yildan berilgan. Bunga sabab, ushbu davrdan boshlab sukukning yillik reporti jamlanib chiqilgan. Quyida uni batafsil statistik tahlil qilib chiqamiz.

2010-yildan to 2012-yilgacha sukuk emissiyasida eng katta o‘shish kuzatilgan bo‘lib mos ravishda 53,13 mlrd AQSH dollaridan 137,60 mlrd AQSH dollariga yetgan<sup>235</sup>. Bu davrda Fors ko‘rfazi mamlakatlarida sukuk bilan bog‘liq korporativ riskni bo‘yniga olishga qo‘rqishgan. Ammo Bahrayn, Qatar, BAA, Indoneziya, Malayziya va Pokiston tomonidan qilingan suveren sukuk emissiyasi sukuk bozorini qo‘llab-quvvatlagan va uning o‘shish potentsialini saqlab qolgan. Buning natijasida suveren sukuk bozorga yanada chuqurroq kirib borgan, bu esa o‘z navbatida davlat tasarrufidagi mulklarning ham bozorga kirishga undagan. Shu tariqa 2015-yilgacha jahon sukuk bozorida o‘shish kuzatilib, aynan shu yili sukuk bozorida kuchli tebranish ya‘ni deyarli 3.5 baravarga tushish holati kuzatilgan. Bunga asosiy sabab sifatida 2015-yilda Malayziya Negara banki (Markaziy bank) qisqa muddatli sukuk chiqarishni kamaytirishi haqidagi qarori natijasida qisqa muddatli sukuk emissiyasida 70% dan ortiq pasayish kuzatilgan. Malayziya Markaziy banki ularning qisqa muddatli sukuklari asosan xorijiy banklar tomonidan likvidlik ehtiyojlarini qondirish uchun ishlatilayotganidan xavotirda bo‘lgan va ichki moliya bozorida likvidlikni yaxshilash uchun qisqa muddatli sukuk emissiyasini to‘xtatgan. 2016-yildan boshlab bozorga yangi emitentlar kirib kelishi va boshqa omillar sabab yana o‘shish holatiga o‘tilgan<sup>236</sup>.

2024-yilgi emissiya ko‘rsatkichlariga e‘tibor beradigan bo‘lsak, tushish kuzatilgan. Bunga albatta so‘nggi yillarda Malayziya va Indoneziya kabi sukuk bozori rivojlangan davlatlarda ko‘p sonli qisqa muddatli sukuklar emissiyasining kamayishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin<sup>237</sup>. Bu holat albatta ushbu davlatlarning uzoq muddatli strategik loyihalarga ko‘proq urg‘u berayotganligidan dalolatdir.

Xulosa o‘rnida shu davrgacha miqdor bo‘yicha ham chiqarilgan sukuklar soni bo‘yicha ham eng ko‘p deyarli butun sukuk emissiyasining 60% ulushi Osiyo va Uzoq Sharq mamlakatlari (Malaysiya, Indoneziya, Bruney, Bangladesh va boshq.) hissasiga to‘g‘ri kelgan. Bunga asosiy sabablardan aholisining ko‘p qismi musulmon ekanligi va yuqoridagi mamlakatlarda iqtisodiyotning o‘shishiga neft-gaz eksporti yuqori darajada bog‘liqligi asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

---

<sup>235</sup> Islom moliya xizmatlari sanoati barqarorligi haqida hisoboti (2020)

<sup>236</sup> Sukuk report: A comprehensive study of the global sukuk market. International Islamic Financial Market, November 2023, 12th edition. P-35

<sup>237</sup> Norboyeva M. (2024) "Sukuk islom qimmatli qog‘ozlariga doir adabiyotlar sharhi". "Moliya bozorini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari" mavzusidagi III Respublika ilmiy-amaliy konfrensiyasi, 453-455 bet.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Abrorov S., Imamnazarov J. (2021) *Islom moliyasi: O'zbekiston uchun yangi imkoniyatlar. Iqtisodiyot va ta'lim, 4-son, 146-158 bet*

Baydauletov. E.A (2019) *Islom moliya asoslari. O'quv qo'llanma*

*Islom moliya xizmatlari sanoati barqarorligi haqida hisoboti(2020).*

Norboyeva M. (2024) "Sukuk islom qimmatli qog'ozlariga doir adabiyotlar sharhi". "Moliya bozorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" mavzusidagi III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 453-455 bet.

*Sukuk report: A comprehensive study of the global sukuk market. International Islamic Financial Market, November 2025, 14th edition. P-12*

*Sukuk report: A comprehensive study of the global sukuk market. International Islamic Financial Market, November 2023, 12th edition. P-35*

## GAT ASOSIDA O'ZBEKISTON AHOLISINING DEMOGRAFIK O'ZGARISHLARINI PROGNOZLASHTIRISH VA MOLIYA BOZORIGA TA'SIRI

**Kamilova Sanobar**

*TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi xodimi*

**Annotatsiya.** Maqolada GAT texnologiyasi asosida O'zbekiston aholisining demografik o'zgarishlarini prognozlashtirish va ularning moliya bozori rivojlanishiga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot davomida an'anaviy demografik prognozlash usullarining cheklanganligini bartaraf etishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari asosida O'zbekiston moliya bozorining turli segmentlari bank xizmatlari, sug'urta, pensiya fondlari, investitsiya portfellari va raqamli moliyaviy texnologiyalar uchun demografik prognozlardan foydalanish strategiyalari ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Graph Attention Network, demografik prognoz, moliya bozori, sun'iy intellekt, O'zbekiston, bank xizmatlari, sug'urta, investitsiya strategiyasi, raqamli moliya, mintaqaviy rivojlanish.

XXI asrda global iqtisodiyotning tez sur'atlar bilan raqamlashuvi moliya bozorlarining rivojlanishiga yangicha talablar qo'ymoqda. Zamonaviy moliya tizimi nafaqat joriy iqtisodiy vaziyatni tahlil qilish, balki uzoq muddatli istiqbollarni ilmiy asoslangan holda bashorat qila olish qobiliyatiga muhtoj. Bu kontekstda aholi demografiyasining o'zgarishi moliya bozorining barcha segmentlariga bank xizmatlari, sug'urta, pensiya fondlari, investitsiya portfellari va raqamli moliyaviy texnologiyalarga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim omilga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi uchun ushbu muammo alohida ahamiyat kasb etmoqda. 2025-yil holatiga ko'ra, mamlakatimiz aholisi 38 milliondan oshib, Markaziy Osiyo mintaqasida eng ko'p aholiga ega davlat hisoblanadi. Prezident